



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zarafruz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students.....	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir qizi</i>	
Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland	171
<i>Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi</i>	
Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	175
<i>Akbarova Saidaxon Rustamovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli.....	180
<i>Atadjanova Shaira Xalilovna, Umardulov Muxtorali Islomkulovich</i>	

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish.....	185
<i>Azamatova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili.....	189
<i>Babayeva Dilnoz Xaydarovna</i>	
O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS)	192
<i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	
Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili.....	195
<i>Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi</i>	
Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari.....	199
<i>Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi</i>	
Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications.....	203
<i>Egamova Munisa Khakim kizi</i>	
Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish.....	208
<i>Kodirov Akbar Shuxratovich</i>	
Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools	213
<i>Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi</i>	
O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari.....	218
<i>Mirsidikova Aziza Mirvohidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari	221
<i>Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oprovna</i>	
Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	226
<i>Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar.....	229
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish	233
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoxid qizi</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	237
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish	242
<i>Qurbonova G. M.</i>	
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari	245
<i>Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi</i>	
Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash	248
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	252
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	254
<i>Shaymatova Aziza</i>	
Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar.....	259
<i>Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	265
<i>Suyarova Orzigul Sodiq qizi</i>	



Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik.....	269
To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish	273
Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna	
Ta'limga o'qib tushinishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari.....	276
Umarov Bahrom Norboyevich	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	281
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati.....	286
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar	289
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri	292
Yulchiboyeva Dilfuza Ergasheva	
Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish.....	297
Zakirova Sohila Muxtoraliyevna, Nurmuhamedova Dilshoda Zaynobiddin qizi	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	302
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Ортодонтியда миотерапиya: миогимнастик дентоальвеоляр apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi	305
Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna	
Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков	308
Умрихина Виктория Игоревна	
21st Century Dental Innovation Technologies: An Overview	314
Khojimurodov Burkhon Ravshanovich	
Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах	317
Шарипова Шахноза Шавкат кизи	
Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка.....	321
Эшонкулов Хамрокул Маматкулович	



SUN'IY INTELLEKT VA KATTA MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlardan (Big Data) foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda boshqaruv samaradorligi masalasi nazariy qarashlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, xorijiy (AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya) hamda mahalliy (O'zbekiston) tajribalar qiyosiy o'rganildi. Ushbu maqola SI va Big Data texnologiyalarini boshqaruv fanining yangi konseptual yo'nalishi sifatida baholaydi va O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ularni bosqichma-bosqich joriy etish strategiyalarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, oliy ta'lim, boshqaruv samaradorligi, raqamli transformatsiya, ta'lim sifati, resurslarni optimallashtirish, elektron universitet.

Abstract: The article examines the theoretical and practical foundations of using artificial intelligence (AI) and Big Data to enhance management efficiency in higher education institutions. The study analyzes management effectiveness from the perspective of theoretical approaches and provides a comparative analysis of international experience (the United States, Germany, South Korea) and national practice (Uzbekistan). The paper evaluates AI and Big Data technologies as a new conceptual direction in management science and serves as a basis for defining strategies for their gradual implementation in Uzbekistan's higher education system.

Key words: artificial intelligence, Big Data, higher education, management efficiency, digital transformation, quality of education, resource optimization, electronic university.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические основы использования искусственного интеллекта (ИИ) и больших данных (Big Data) для повышения эффективности управления в высших учебных заведениях. В исследовании проанализированы вопросы управленческой эффективности с точки зрения теоретических подходов, а также проведено сравнительное изучение зарубежного опыта (США, Германия, Республика Корея) и национальной практики (Узбекистан). Статья оценивает технологии ИИ и Big Data как новое концептуальное направление в науке управления и служит основой для определения стратегий их поэтапного внедрения в систему высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: искусственный интеллект, большие данные, высшее образование, эффективность управления, цифровая трансформация, качество образования, оптимизация ресурсов, электронный университет.

KIRISH

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim tizimining raqobatbardoshligi nafaqat ilmiy salohiyatli mutaxassislarini tayyorlash darajasiga, balki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro maydondagi mavqeiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan, xususan, sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlar (Big Data) imkoniyatlaridan foydalanish strategik ahamiyat kasb etmoqda (Brynjolfsson & McAfee, 2017).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nazariy jihatdan qaralganda, boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi turli ilmiy konsepsiyalar orqali izohlanadi. Klassik boshqaruv nazariyalari samaradorlikni resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'lasa, zamonaviy yondashuvlarda jarayonlarning tezkorligi, moslashuvchanligi va shaxsga yo'naltirilganligi asosiy mezon sifatida qaraladi (Siemens & Long, 2011). SI va Big Data texnologiyalari aynan shu talablarni ta'minlaydi. Ularning asosiy afzalligi – katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash, jarayonlardagi tendensiyalarni oldindan prognoz qilish va qarorlarni ilmiy asoslash imkoniyatidir. Shu sababli, mazkur texnologiyalarni boshqaruv jarayoniga tatbiq etish an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Xorijiy tajribaga nazar tashlaganda, rivojlangan mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida SI va Big Data texnologiyalari keng qo'llanilayotganini ko'rish mumkin. Masalan, AQSh universitetlarida Learning Analytics tizimlari orqali talabalar faoliyati doimiy ravishda kuzatilib, o'qishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo'lgan talabalarni erta aniqlash imkoniyati yaratiladi (Siemens & Long, 2011). Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini individuallashtirish va o'quv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Germaniyada esa katta ma'lumotlardan ta'lim sifatini baholash hamda moddiy-texnik resurslarni oqilona taqsimlashda foydalaniladi (OECD, 2019). Janubiy Koreya tajribasida SI texnologiyalari masofaviy ta'limni rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda (Kim & Lee, 2020). Xususan, pandemiya davrida SI asosidagi platformalar yordamida ta'lim jarayonining uzluksizligi ta'minlangan. Ushbu misollar xorijiy mamlakatlarda raqamli texnologiyalarni boshqaruvga tatbiq etish ta'lim tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatadi. Mahalliy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va boshqaruvni optimallashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident qarorlariga muvofiq, qator universitetlarda "Elektron universitet" tizimlari joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2020). Ushbu tizimlar o'quv jarayonini avtomatlashtirish, talabalar davomatini elektron nazorat qilish, baholash jarayonlarini shaffoflashtirish hamda testlarni onlayn tarzda o'tkazish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, elektron kutubxonalar, masofaviy ta'lim platformalari va raqamli ma'lumotlar bazalari kengaymoqda. Biroq mavjud tizimlar hali to'liq darajada SI va Big Data texnologiyalarining imkoniyatlarini qamrab olmaydi. Ma'lumotlar bazalarining integratsiyalanmaganligi, texnologik infratuzilmaning ayrim cheklanishlari hamda mutaxassislar malakasining yetarli emasligi boshqaruv samaradorligini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanishga qaratilgan dastlabki loyihalar ijobiy natijalar bermoqda. Ayrim universitetlarda talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari va reytinglarini analitik platformalar yordamida tahlil qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bu esa boshqaruv qarorlarini aniqroq asoslash va o'quv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan prognoz qilish imkonini bermoqda. Shunga qaramay, mavjud yutuqlar hozircha boshlang'ich bosqichda bo'lib, jarayonni kompleks tarzda rivojlantirish talab etiladi. Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish nafaqat texnologik, balki strategik jihatdan ham dolzarb masaladir. Xorijiy tajribalar ushbu texnologiyalarning yuqori samaradorligini tasdiqlab bermoqda. Mahalliy tajribada esa dastlabki natijalar ijobiy bo'lsa-da, ularni tizimli ravishda rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish va malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruriyati mavjud. Shu bois, mazkur mavzu ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlardan (Big Data) foydalanish imkoniyatlarini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg'unligi asosida ishlab chiqildi. Shu bois ishda adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, empirik kuzatuv, kontent-analiz hamda statistik ma'lumotlarni qayta ishlash kabi usullar qo'llanildi. Avvalo, mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar hamda maqolalar o'rganildi. Ushbu bosqichda nazariy asoslar aniqlanib, SI va Big Data texnologiyalarining ta'lim boshqaruvidagi o'rni konseptual jihatdan yoritildi. Shundan so'ng qiyosiy tahlil metodi yordamida AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya tajribalari O'zbekiston sharoitlari bilan solishtirildi. Mazkur yondashuv xorijiy tajribalarni bevosita ko'chirish emas, balki ularni mahalliy sharoitga moslashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotning empirik qismi doirasida O'zbekistonning bir nechta yetakchi universitetlarida mavjud boshqaruv tizimlari va raqamlashtirish jarayonlari o'rganildi. Jumladan, "Elektron universitet" tizimi, masofaviy ta'lim platformalari, elektron kutubxona hamda test tizimlarining ishlash mexanizmlari tahlil qilindi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida hujjatlar tahlili, intervyu va so'rovnoma usullaridan foydalanildi. Universitet rahbarlari, dekanatlar xodimlari va texnik bo'lim vakillari bilan suhbatlar o'tkazilib, mavjud muammolar hamda ehtiyojlar aniqlashtirildi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda kontent-analiz va statistik tahlil usullari qo'llanildi. Xususan, talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari, davomati va reyting baholari asosida analitik kuzatuv olib borildi. Ushbu jarayonda SI algo-



ritmlarini joriy etish orqali talabalarning muvaffaqiyatini prognozlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, metodologiyani muhim tarkibiy qismi sifatida SWOT-tahlil amalga oshirildi. Unda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida SI va Big Data texnologiyalarini joriy etishning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tahdidlar baholandi. Ushbu tahlil natijasida boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar aniqlab olindi.

Tadqiqot metodologiyasi ko'p bosqichli va tizimli yondashuvga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Dastlab nazariy asoslar ishlab chiqildi, keyin xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilindi, undan so'ng mahalliy sharoitda empirik ma'lumotlar yig'ildi va statistik tahlil orqali asosiy xulosalar shakllantirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minladi. Umuman olganda, mazkur metodologik yondashuv nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa rivojlanayotgan davlatlarda ham oliy ta'lim boshqaruvini raqamlashtirish jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan samarali model sifatida baholanishi mumkin. Tadqiqotning keyingi bosqichida natijalarni keng qamrovli statistik ma'lumotlar bilan boyitish hamda SI texnologiyalarining eksperimental tatbiqini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida olingan natijalar oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlardan (Big Data) foydalanish muhim omil ekanini ko'rsatdi. Natijalar uch asosiy yo'nalishda tizimlashtirildi: boshqaruv jarayonlari samaradorligi, ta'lim sifati monitoringi va resurslarni optimalashtirish. Birinchidan, boshqaruv jarayonlarida SI va Big Data texnologiyalarini qo'llash qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshirishi aniqlandi. Talabalar faoliyati, professor-o'qituvchilar yuklamasi, moddiy-texnik baza hamda moliyaviy resurslar haqidagi ma'lumotlar bir markazda jamlanganda rahbarlarning vaziyatni tezkor tahlil qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati ortadi. Masalan, bir nechta universitetlarda o'tkazilgan empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, elektron tizimlarga asoslangan ma'lumotlar bazasi yordamida dekanatlar semestr yakunida talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarini an'anaviy usullarga nisbatan ikki baravar tezroq umumlashtira olgan. Ikkinchidan, ta'lim sifati monitoringi samaradorligida sezilarli natijalar kuzatildi. Sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish orqali talabalar o'zlashtirishdagi individual farqlarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Jumladan, talabalar reyting baholari va davomati asosida ishlab chiqilgan prognoz modeli yordamida o'qishni tashlab ketish xavfi yuqori bo'lgan talabalar oldindan aniqlangan. Bu esa ta'lim jarayonida individual yondashuvlarni kuchaytirish, konsultatsiyalar hamda qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil etish imkonini berdi. Natijada SI asosidagi tahliliy vositalar ta'lim sifatini oshirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. Uchinchidan, resurslarni samarali boshqarishda ham ijobiy natijalar qayd etildi. Katta ma'lumotlarni tahlil qilish orqali auditoriyalar bandligi, elektron resurslardan foydalanish darajasi va professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati haqida keng qamrovli ma'lumotlar yig'ildi. Natijada ayrim universitetlarda auditoriyalardan foydalanish samaradorligi 15–20 foizga oshgani kuzatildi. Shuningdek, kutubxona fondlarining elektron tizim orqali monitoringi talabalarning qaysi fanlar bo'yicha ko'proq adabiyotga ehtiyoj sezayotganini aniqlash imkonini berdi, bu esa kelgusida resurslarni rejalashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tajribalar tahlili natijalari O'zbekiston sharoitida SI va Big Data texnologiyalarini joriy etishda aniq ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. AQSh tajribasida bo'lgani kabi, talabalar faoliyatini monitoring qilish va ularning muvaffaqiyatini prognozlash imkonini beruvchi tizimlarni bosqichma-bosqich joriy etish zarurligi aniqlandi. Germaniya oliy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan sifat monitoringi va resurslarni taqsimlash mexanizmlarini mahalliy sharoitga moslashtirish orqali boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligi ko'rsatildi. Janubiy Koreya tajribasi esa masofaviy ta'limni rivojlantirishda SI asosidagi platformalarning yuqori imkoniyatlarga ega ekanini yaqqol tasdiqladi. Mahalliy tajriba natijalariga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekiston universitetlarida mavjud elektron tizimlar SI va Big Data imkoniyatlarini to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli mavjud tizimlarni integratsiyalash hamda ularni kengroq analitik funksiyalar bilan boyitish zarur. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, oliy ta'lim muassasalarining aksariyati SI texnologiyalaridan foydalanishga qiziqish bildirgan bo'lsa-da, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi va mutaxassislar malakasining pastligi mazkur jarayonni sekinlashtirmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlardan (Big Data) foydalanish muhim strategik vosita ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar inson omilini kamaytirish emas, balki uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. An'anaviy boshqaruv tizimida rahbarlar ko'proq tajriba va sezgi asosida qaror qabul qilgan bo'lsa, SI yordamida qarorlar ilmiy asoslangan ma'lumotlarga tayangan holda tez va aniq qabul qilinadi. Bu holat boshqaruv fanida yangi konsepsiya – "aqlli boshqaruv" tushunchasini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil natijalari O'zbekiston sharoitida SI va Big Data texnologiyalarini tatbiq etishda differensial yondashuv muhim ekanini tasdiqladi. Jumladan, AQShda talabalar faoliyatini prognozlovchi tizimlar samarali ishlayotgan bo'lsa, Germaniyada sifat monitoringi va resurslarni taqsimlash ustuvor hisobla-



nadi, Janubiy Koreyada esa masofaviy ta'limni SI yordamida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois, xorijiy tajribalarni bevosita ko'chirib olish emas, balki ularni mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Natijalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimida muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Eng asosiylari – texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, mutaxassislarning sun'iy intellekt (SI) va Big Data texnologiyalari bo'yicha malakasining pastligi hamda ma'lumotlar bazalarining integratsiyalanmaganligidir. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash zarur bo'lib, jumladan, universitetlararo ma'lumotlar almashinuvi mexanizmlarini yaratish, maxsus kadrlar tayyorlash va texnologik investitsiyalarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, SI texnologiyalaridan foydalanish axloqiy masalalarni ham yuzaga keltiradi: talabalar ma'lumotlarining maxfiyligi va ularning huquqlarini himoya qilish masalalari alohida e'tibor talab qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari nazariy jihatdan SI va Big Data texnologiyalarini boshqaruv fanining yangi konseptual yo'nalishi sifatida talqin qilish imkonini berdi. Amaliy jihatdan esa ushbu texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishda samarali vosita ekanini tasdiqladi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni inobatga olgan holda bosqichma-bosqich strategiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ta'lim tizimining kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, platform, crowd: Harnessing our digital future. W.W. Norton & Company.
2. Daniel, B. (2015). Big Data and analytics in higher education: Opportunities and challenges. British Journal of Educational Technology, 46(5), 904–920. <https://doi.org/10.1111/bjet.12230>
3. Kim, Y., & Lee, J. (2020). The rise of artificial intelligence in higher education: Korean experiences. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 17(1), 1–17. <https://doi.org/10.1186/s41239-020-00224-7>
4. OECD. (2019). OECD Skills Outlook 2019: Thriving in a digital world. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/df80bc12-en>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2020). Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya bo'yicha chora-tadbirlar. Toshkent.
6. Vakhobova, M. (2024). Universities as beacons of hope in an era of change // Sun'iy intellekt nazariyasi va amaliyoti: tajribalar, muammolar va istiqbollari. 347–350-betlar.
7. Abdukhamidovna, V. M. (2024, May). Enhancing creative distant learning in higher education institutions in a digital society // International Conference on Modern Development of Pedagogy and Linguistics (Vol. 1, No. 5), 13–16-betlar.
8. Siemens, G., & Long, P. (2011). Penetrating the fog: Analytics in learning and education. EDUCAUSE Review, 46(5), 30–40.
9. World Bank. (2021). Digital transformation of education in Uzbekistan. World Bank Group.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.